

REPRODUKTIV SALOMATLIKNI SAQLASHDA PATRONAJ HAMSHIRASINING FAOLIYATINI O’RGANISH

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti.

Jamoat salomatligi va sog’liqni saqlash menejmenti kafedrası

Magistratura rezidenti: **Abdumuratova Zarina Shokir qizi**

Ilmiy rahbar: PhD.dotsent. **Aminov Z.Z**

ANNOTATSIYA

Dunyo mamlakatlarida hozirgi kunda eng muhim masalalardan biri – reproduktiv salomatlik va u bilan bog’liq kasalliklardir. Dunyo aholisi statistikasiga e’tibor beradigan bo’lsak: Germaniyaning Stiftung Weltbevölkerung – “Yer aholisi “ jamg’armasi 11-iyulda nishonlanuvchi Jahon aholishunoslik kuni arafasida dunyo aholisini soni 7.8 mlrd kishiga yetganini ma’lum qildi. Jamg’arma ma’lumotiga ko’ra dunyo aholisining soni yiliga 82 mln kishiga ko’paymoqda, dunyoda har soniyada o’rtacha 2.6 bola dunyoga keladi. Mutaxassislarining takidlashicha aholi o’sishini jadal davom etayotganini sabablaridan biri istalmagan homiladorliklarning ko’pligidir. Dunyoda har beshinchi homiladorlikdan ikkitasi istalmagan hisoblanadi. Har yili 15 mln o’smir qizlar ona bo’ladi, 4 mln ga yaqini abort bilan tugaydi. Dunyoda har yili 50 mln ayolning reproduktiv salomatligi zaifligi natijasida homiladorlik bilan bog’liq jiddiy kasalliklar va nogironlik kuzatiladi. Jahonda har yili 500 000 ayol homiladorlik va tug’ish vaqtida yuzaga keluvchi asoratlar oqibatida vafot etadi. Har yili 15 mln ayol homiladorlik va tug’ish bilan bog’liq jaroxatlar, infeksiyalar va boshqa asoratlar tufayli azob chekadilar.

Kalit so’zlar: Reproductiv salomatlik, patronaj hamshirasi, fertil yosh, kontrasepsiya tushunchasi, homiladorlik.

Tadqiqotning maqsadi: Aholining reproduktiv salomatligini saqlashda patronaj hamshirasining kasbiy faoliyatini o’rganish. Fertil yoshdagi ayollarni reproduktiv salomatligini saqlash ularning reproduktiv salomatlik madaniyatini ilmiy salohiyatini oshirish. Reproductiv tizim bilan bog’liq kasalliklar va ularning oldini olish profilaktikasi haqida targ’ibot ishlarini olib borish, kontrasepsiya tushunchalarini aholiga targ’ib qilish.



Tadqiqot obekti: Fertil yoshdagi 15 yoshdan 45 yoshgacha bo’lgan o’smir qizlar va ayollar.

Tadqiqot predmeti:Reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini saqlashda patronaj hamshirasining kasbiy faoliyatini o'rganish va taxlil qilishning amaliy uslubiy asoslari.



Tadqiqot usuli va materiallari:Anketa so'rovnoma usuli,nazariy va amaliy adabiyotlarni tahlil qilish asosida muammo holatini o'rganish. Anketa so'rovnoma o'tqazish uchun ixtiyoriy 15 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan 200 kishi tanlab olindi.Anketa so'rovnoma 20 ta savoldan iborat bo'lib,Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on va Termiz tumanlarida o'tkazildi.

Kirish.


Reproduktiv salomatlik insoniyat taraqqiyotida, umumiy salomatlikning bir qismi bo'lib, markaziy zvenoni egallab kelmoqda.U barcha–barchaga erkaklar va ayollarga, bolalar va o'smirlarga ham taaluqli bo'lib, ularning butun oilaviy hayotini, uni qanday tashkil etishni,ushbu masalaga oid bo'lgan barcha axborot, ma'lumotlardan xabardor bo'lishni,homiladorlik va undan saqlanishning xavfsiz usullari, kontraseptiv vositalar va ulardan foydalanish, ular bilan bog'liq masalalarda sog'liqni saqlash tizimi xizmatidan to'laqonli va erkin foydalanish huquqini, xar bir insonning o'z reproduktiv huquqi mavjudligini, oilasida tug'ilajak farzandining sog'lom bo'lishini taminlashi shart va zarurligini anglatadi.Ushbu masalada yetarlicha bilim va ko'nikma, malakaga, tibbiy savodxonlikga ega bo'lmagan inson o'z hayotida ko'pgina muammolarga duch kelishi, turli kasalliklarga chalinishi eng ayanchlisi o'zidan keyingi zuryodi farzandining sog'lig'iga ta'sir qilishi nogiron farzand dunyoga kelishi yoki o'zidan zuryod qoldirolmasligi yani bepushtlik kabi xastaliklarga chalinishi mumkin.Aynan shuning uchun ham bugungi kunda aholining reproduktiv salomatligini muxofaza qilish masalasi nafaqat sog'liqni saqlash tizimining balki davlat,jamiyatning muhim vazifalar sirasiga kiradi.Bu borada bizga asosiy tayanch bo'lib patronaj hamshiralari faoliyat olib borishadi.Patronajlarning universal progressiv modeli joriy etilgan bo'lib unda oilaning barcha a'zolari bilan muloqot o'rnatish,kasalliklarni oldini olish uchun profilaktik tavsiyalar berish har 6 oyda xatlov o'tqazish,yilida 3-4 marotaba tibbiy ko'riklarga jalb etish kabi vazifalarni qamrab oladi.Reproduktiv salomatlikni saqlashda patronaj faoliyatini baholash maqsadida anketa so'rovnoma o'tkazildi, quyidagi natijalar olindi:200 nafar respodentlarimizning demografik holati(yosh,ish faoliyati..)o'rganildi.1-2 diagramma



Anketamizdagi keyingi savol “Reproduktiv salomatlik haqida tushunchaga egamisiz?” deb berilgan savolga quyidagicha javob olindi.3-diagramma.



Patronaj hamshiralarimiz faoliyati o'rganilganda ular asosan homiladorlar va chilla davridagi 1 yoshgacha bo'lgan yosh bolali ayollar bilan ko'proq faoliyat olib borayotganini ko'rishimiz mumkin, o'smir qizlarimizga esa e'tiborning sustligini aniqladik. 4-diagramma.



Patronaj hamshiralarimiz faoliyatini o'rganish jarayonida tibbiy ko'riklarga kelmayotgan respondentlarimiz borligini ham kuzatdik. 5-diagramma.

Xulosa: 65% reproduktiv yoshdagi ayollarimiz „Reproduktiv salomatlik“ haqida tushunchaga ega, 35% ishtirokchilar reproduktiv salomatlik haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas. 68% ishtirokchilarimiz yoshlarga reproduktiv salomatlik haqida 11-13 yoshdan boshlab o'qitish tushuncha berish kerak degan fikr bildirildi. Bundan tashqari homiladorlikdan saqlanish uchun 48% aholimiz BIS (bachadon ichi spirali) dan foydalanishi ma'lum bo'ldi. Aholimiz orasida “tibbiy abort” haqida tushuncha bo'lishiga qaramasdan 58% homiladorlikning abort bilan yakulanganini ko'rishimiz mumkin. O'smir qizlarimiz bilan ko'proq ishlashimiz ularga reproduktiv salomatlik haqida tushuncha berishimiz kerak.

Amaliy tavsiyalar

1. Maktab, texnikumlarda reproduktiv salomatlik bo'yicha trening mashg'ulotlarini tashkil etish
2. O'smir qizlarimiz uchun maxsus brashuralar ishlab chiqish
3. Maxallalarda ayollar klublarini tashkil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmanov Kalandar. Labor economics. T'eory and practice. Scientific Publishing 'ouse

IVG London. Copyrig‘t 2020. ISBN UK Print 978-1-912966-004. ISBN UK E-Book 978-1-912966-01-1. P 615.

2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Darslik. – T.: «FAN», 2019 yil. - 670 b.

3.Абдурахманов.К.Х. Экономикатруда. Теория и практика. Учебник: в 2 ч. – Москва: ФГБОУ ВО «РЕУ им. Г. В. Плеханова», 2019.

4. “Аxoli va reproduktiv salomatlik” o’quv qo’llanma.Aziza Irmatova.Toshkent 2021.

5. Андрюшина Е.В, Каткова И.П, Катков В.И, Репродуктивное здоровье населения -основа демографической политики.Народонаселение 2003.№4 16 -34 с

6. Abdurahmanov Q.X va boshqalar, Demografiya darslik. –T: “Fan va texnologiya” 2014. 368-b.

7. Arziqulov R.U. Sog’lom turmush tarzi asoslari.